


“Xiva tarixidan lavhalar” kitob-albomi

Xorazm Ma'mun akademiyasi tomonidan “Xiva tarixidan lavhalar” kitob-albomi o'zbek va rus tillarida nashr etildi. Ushbu kitob-albomda Xiva shahrining vujudga kelishi, ijtimoiy hayoti, aholining etnik tarkibi, dehqonchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik mashg'ulotlari, xivaliklar madaniyati va san'atiga doir qimmatli ma'lumotlar qo'lyozma asarlar, arxiv ma'lumotlari, elchi va sayyohlarning esdalik va xotiralari, nodir manbalar ma'lumotlari asosida ilk bora kompleks yoritilgan.



Kitob-albom mahalliy va xorijiy sayyohlar, oliy o'quv yurti talabalari, gid-yo'l boshlovchilar hamda yurtimiz tarixi bilan qiziquvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mazkur kitob-albomning afzaligi shundaki, Xiva shahrining vujudga kelishi, ijtimoiy hayoti, aholining etnik tarkibi, dehqonchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik mashg'ulotlari, xivaliklar madaniyati va san'ati doir ma'lumotlar yangi va noyob manba hamda adabiyotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, kitobda mavzuga doir ko'plab noyob suratlarning mavjudligi har qanday kitobxonni o'ziga jalb qila oladi.